

**XARAKTER YARATISHDA KECHINMA TALQINI**

**Rushana Zaripova,**  
*Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o‘zbek tili  
va adabiyoti universiteti  
tayanch doktoranti*

***Annotatsiya.** Badiiy asarda obrazning ma’lum bir belgilari mukammal tasvirlangan va o‘zida fe’l -atvor, jumladan xatti-harakat, kechinma, fikriy va nutqiy faoliyatning aniq tipini mujassamlashtirgan, shuningdek, muallifning ma’naviy estetik tizimini ifodalagan inson obraziga xarakter deyilishi manbalarda ko‘plab uchraydi. Ana shu xarakterni yaratishda kechinma talqini badiiy asar uchun muhim bir nuqta hisoblanadi. Ushbu maqolada ham Abduqayum Yo‘ldosh asarlarida kechinma talqini haqida atroflicha so‘z yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** Kechinma, badiiy psixologizm, ruhiyat, obraz, xarakter*

***Аннотация.** В художественном произведении определенные признаки образа полностью описаны и воплощают в себе действие, включая жесты, движения, переходы, интеллектуальную и речевую активность, которые формируют определенный тип. Кроме того, они выражают эстетическую систему автора. Создание такого характера в художественном произведении считается важной точкой. В этой статье также подробно обсуждается интерпретация переходов в произведениях Абдукаюма Ёлдоша.*

***Ключевые слова:** Переход, художественный психологизм, психология, образ, характер.*

***Annotation.** In a work of art, certain characteristics of the image are fully described and embody action, including gestures, movements, transitions, intellectual and verbal activity, which form a specific type. They also express the author’s aesthetic system. The creation of such a character is considered an important point for a work of art. This article also discusses in detail the interpretation of transitions in the works of Abduqayum Yoldosh.*

***Keywords:** Transition, artistic psychology, spirituality, image, character.*

Kechinma talqini, xarakterning ruhiy va fikriy o‘shini, uning jamiyat va dunyo bilan munosabatlarining o‘zgarishini ifodalaydi. Bu jarayon xarakterning ichki dunyosini, uning fikrlarini, his-tuyg‘ularini va qarashlarini yanada chuqurroq tasvirlashga yordam beradi. Badiiy asardagi hayot – so‘z vositasida yaratilgan ekan, badiiy til bevosita real fikr va hissiyotning obrazli ifodasidir. Asardagi har qanday obrazning ichki kechinmalari tasviri adibning so‘z qo‘llash mahoratiga bog‘liq. Chunki qo‘llanilgan har qanday so‘z, ibora va o‘xshatishlar, tasviriy ifodalar voqealar va kechinmalarining hayotiylikini ochib berish bilan birga adabiy asarda ma’lum yukni tashishi lozim bo‘ladi. U tasvirlanayotgan voqeaning haqqoniyliги va to‘laligini, qahramonning his-tuyg‘ulari, kayfiyat va kechinmalarini o‘zida mujassam etishiga – shu yukni qanchalik ko‘targanligiga qarab uning ahamiyati va kuchini belgilaymiz. [1:203]

# **“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI**

Badiiy asar rivojida kishilarning ichki dunyosiga, ularning latif-zarif tomonlari va go‘zalligiga yaxshi e‘tibor qilish to‘g‘risida jiddiy o‘ylab ko‘rish fursati allaqachon yetganligi, bu esa yozuvchilik mahoratining eng muhim jihati ekanligi o‘tgan asrning ikkinchi yarmidayoq adabiy jamoatchilikka ma‘lum qilingan edi. [2:277]. Ana shu o‘rtaga tashlangan fikr isboti o‘laroq bugungi o‘zbek nasrida kishilarning o‘y-kechinmalari, ruhiy olami, xarakter xususiyatlari tasviriga keng e‘tibor qaratilayotganligining guvohi bo‘lmoqdamiz.

Hozirgi o‘zbek nasrida iste‘dodli ijodkorlardan biri sifatida qalam tebratib kelayotgan Abduqayum Yo‘ldoshev asarlarida qahramon ruhiyatiga yanada chuqur kirish, badiiy psixologizmning yangicha tasviriy vositalaridan foydalanib, ramziy-psixologik timsollar, to‘qima obrazlar yaratilganini ko‘ramiz.

Adibning “Sunbulaning ilk shanbasi”, “Timsohning ko‘zyoshlari”, “Otchopar yoxud o‘n uchinchi uy”, “Gudbay, Amerika”, “Shoirning muhabbati” qissalarida, “Puankare”, “Alvido, go‘zallik”, “Tushov”, “Parim bo‘lsa” kabi hikoyalarda turfa xil taqdirilar, qahramonlarning o‘ziga xos xarakterlari, psixologiyasi, kechinmalari mohirona tasvirlab berilgan. Yozuvchi asarlarida insonning ruhiy kechinmalari ishonarli va ta‘sirchan ochib berilishi diqqat markaziga qo‘yiladi. Qahramonlarning o‘y-kechinmalari, dard-tashvishlari o‘quvchini befarq qoldirmaydi.

Masalan, “Otchopar yoxud o‘n uchinchi uy” qissasida yolg‘onchilik, firibgarlik, baxillik qurboni bo‘lgan bosh qahramon Nozimaning hayoti tilga olinadi. Yozuvchi ijodida majoziy-istioraviy uslubni psixologik joziba bilan talqin etish mahorati yetakchilik qiladi. Mazkur qissa allazamonda otchopar bo‘lgan maydonda qad rostlagan to‘qqiz qavatli “13” raqamdagi “dom” voqeligi asosida qurilgan. Asar sarlavhasidayoq muallif majoziy talqin orqali o‘z muddaosini ifodalagan. Masalan, “otchopar” - sho‘roviy siyosatning mahalliy xalqning milliy qadriyatlarini, dinini, ma‘naviy urf-odatlarini toptagan, hatto, Olloh uyi sanaluvchi masjid-madrasalarni ishratxonaga, tungi barlarga, cho‘chqaxonalarga aylantirgan zo‘ravon siyosat ko‘rguligining ramzi. Ana shu “otchopar” o‘rnida qurilgan to‘qqiz qavatli “dom”ning tag‘in “13” raqamida ekanligi xalq nazdida xosiyatsiz raqam majoziy bechora mahalliy aholining aziyati, kelgusidagi fojiona taqdirining bashorati sanaladi. Qissa ana shu xosiyatsiz “dom” portretining tasviri bilan boshlanadi.

Kishi qalbida noxushlik uyg‘otuvchi “...eshigi qo‘porib ketilgani bois baayni tishi qoqib olingan og‘zini ochib turganday vahimali ko‘rinadigan kirish joyi; bir umr chiroqqa yolchimaydigan yo‘laklar; is bosgan ship; g‘adir-buduri chiqib ketgan devorlar...” kabi peyzaj bilan boshlangan asar oxiri ham shunday mahzun kayfiyat bilan yakun topadi. Qahramonlarning ruhiy fojiasi, shu fojiaga olib borgan sabablar yuqori pafos bilan ifodalangan.



# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Dastlab, asar boshida Nozima g‘ayratli, shijoatli zamonaviy ayol sifatida tasvirlanadi:

“Chamasi o‘ttiz yoshlardagi, siymin tan, ancha-muncha o‘rinlari ochiqroq tor libosda do‘mboq qomatini ko‘z-ko‘zlaganday sallona-sallona qadam tashlaydigan, boz ustiga anddakina ishvayu noz aralash ohangda tantiqlanibroq so‘zlayotgan mahali xumor ko‘zlarini suhbatdoshidan uzmay turishiyu bexosdan yelkalarini uchirib, shirin xomuza tortib qo‘yishlari...”[3:96] sifatida tasvirlangan Nozimaxon yangi zamonning yangi ayollaridan, ya‘nikim, otchoparning beli baquvvat sohibalaridan edi.

Adib Nozima xarakterini ochishda portret bilan bir qatorda uning qo‘shni ayollar bilan bo‘lgan suhbatlari asnosidagi gap-so‘zlari, xatti-harakatlaridan ham unumli foydalanadi:

Ahli tijoratga xos betgachoparlik, ancha-muncha sharttakilik fe‘l-xo‘yiga singib ulgurgan Nozimaxon ushoqqina eri bor-yo‘g‘i bitta “RAF”ga jo bo‘lgan arzimas qaqir-ququrlarni-yu tugunchaklarini tushira boshlagan mahaldayoq podyezd eshigi yonidagi o‘rindiqlarda turnaqator tizilgan ayollar yoniga shartta borasola “Salom! Men Noziyman! Ippodromda ishlayman. Optoviyda” deya qo‘l cho‘zishi, yoki, qo‘shni ayollarning “Sizlarni kvartir deb eshitdik, yuklaringizam...” degan sha‘masiga “To‘g‘ri, kvartirantman. Avval bir turib ko‘ray dedim, yoqsa sotib olaman. Yoqmasa ertagayoq ketaman-boraman. Shuning uchun import mebellarimniyam olib kelmadim... gilamlarimam qoldi” [3:96-97]deb shartta gapni kesib gapirishlari kitobxonga Nozimani haqiqatdan ham zamonaviy, ushlagan joyini uzib oladigan ayol sifatida qiyofasini namoyon etadi.

Dastlab, kitobxonda shunday taassurot qoldirgan Nozimaning asar so‘nggida ayanchli taqdiri, iztiroblari, dard-u alami, adabiy gallyutsinatsiyaga uchragan jarayoni kitobxonni sergaklantiradi. Nochorlik, qo‘li kaltalik insonni tuynugi yo‘q qorong‘ulik qa‘riga tashlashi ishonarli tasvirlangan.

Ishonch, vafo, do‘stlik omonat ekanligi aks ettirilgan. Dastlab hamma ishi binoyidek ketayotgan Nozimani dugonam deb ishongan Flora katta miqdordagi pulga chuv tushiradi. Muallif Flora porteretini tasvirlar ekan, “...Nozimaning yarmicha kelardi, shu holiga yana o‘zini yanada ozg‘in ko‘rsatadigan uzun tor shim, torgina katak ko‘ylak kiyib yurardi. Soch-ku, armiyada xizmat qilayotgan yigitlarnikidan aslo farq qilmasdi. ... odamga tik qaramasdan boshini egiroq turishimi, tortinchoq, o‘ziga unchalik ishonmaydigan o‘spirin bolani eslatadigan Floraning biznes, tadbirkorlik olamida qanday qilib non topib yeyayotganligini tasavvur qilish qiyin edi”- deb tasvirlaydi. Ko‘rinishidan sodda, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan Florani muallif tasvirlab berish asnosida, kitobxonni ham uning soddaligiga ishontirmoqchi bo‘ladi. Lekin, asar davomida shaldur-shuldir Nozimaning sal narsaga bukilib, o‘zini oldirib

## “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

qo‘yishiga guvoh bo‘lganimizdek, Floraning ham muallif tasvirlaganidek kamsuqum emasligi ayon bo‘ladi. Besh ming dollarga Nozimani laqqa tushirib, izsiz g‘oyib bo‘lgan Florani izlab Chimkentga borgan Osiyo opaga: “Agar sen qari kampir besh minutdan keyin bozordan qorangni o‘chirmasang kallangni oldiramanda, qopga solib qo‘yaman! Tushundingmi!”-deyishi uning anoyilardan emasligini ko‘rsatadi.

Inson cheksiz nafrat va g‘azab ichida, yoki, shu darajadagi xursand bo‘lganida qalbidagi kechinmalar po‘rtanasi yuzaga chiqadi. Ba’zida, kishi o‘zini boshqara olmaydigan darajadagi hissiyot, u xoh salbiy xoh ijobiy bo‘lsin, shiddat bilan kechganida inson tili yo biror kalimagaa kelishmay qoladi, yoki, nimalar deb yuborganini o‘zi ham sezmay qoladi. Yuqoridagi parchada tasvirlangan bozordagi jarayonda Nozima va Qo‘ziboyning aynan shunday holatdagi kechinmalari tasvirlangan. Dastlab, Nozimaning doim o‘zi nafratlanib yuradigan kishisi Qoraboydan bajburlikdan pul so‘rab qo‘ygandagi holati. Ijodkor bu holatga Nozimaning kechinmalarini tasvirlash bilan birga kitobxonni ham shu muhitga tayyolab boradi va shunday tasvirleydi:

Hali vahm vulqoni butun dahshati bilan qaynab-toshmagan edi, hali mo‘jiza ro‘y berishiga va barcha mushkulotlar o‘z-o‘zidan hal bo‘lib ketishiga ilinj bore di, hali, ochig‘ini aytganda, shoxi sinmagan Nozimaning o‘zi vaziyatning naqadar jiddiyligini to‘la anglab yetmagandi, dugonaisining o‘limidan larzaga tushgan juvon bularning bari bir harakat bilan hal etiladigan tirikchilik muammosi edi, xolos...

Ayanan, ana shu tasvirda Nozimaning bir urinishda hal bo‘ladigan turmush muammosi oldida dovdirab qolgandagi ruhiy holatini ochishga harakat bor. Hamsuhbatining nimaga ishora qilayotganini anglagan Nozimaning holati “ko‘zlari shokosasidan otilguday”, “og‘zini kappa-kappa ochgancha esankirab qolishi” kabi holat tasviri bilan oydinlashadi.

“...dir-dir titrayotgan Nozimaning ko‘zlaridan duvillab yosh quyildi, – opa, to‘g‘ri, men yomon xotinman, o‘zimga, boshqalargaa yaxshi bo‘lsin deb (!) yolg‘on ham gapirib turaman, chunki tinchgina, yaxshi yashagim keladi, lekin otamni, singlimni, jiyanlarimni o‘rtaga qo‘yib qasam ichaman, shu kungacha mening badanimga Samadjon akamdan boshqa bironta erkakning qo‘li tegmagan! Xudo xohlasa bundan keyin ham tegmaydi!”-deb ishonch bilan aytishi Nozimani Qoraboy va shunga o‘xshagan boshqa kaslar xayolidagi ayol emasligidan darak bo‘lsa, quyidagi ichki kechinmalarining yuzaga chiqishi Nozimaning o‘z oilasiga, turmush o‘rtog‘iga naqadar sadoqatli ekanligini yana bir bor ko‘rsatadi:

Hozir ahvolim og‘ir, tan olaman, juda og‘ir. Lekin, bundan battar kunlar ham boshimga tushgan, o‘shanda ham qutulib ketganman. Men Rossiyaning qirq daraja sovuqlarida ko‘chada o‘tirib paypoq sotganman, buyragimni sovuqda oldirib qo‘yib,



# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

yarim jon bo‘lib qolganman, operatsiya payti u yoqqa ketishimga sal qolgan, o‘shanda biz boshqa bir mamlakatning qor ko‘mib tashlagan, begona bir ko‘chasida bir tiyinsiz qolib ketganmiz, shunda ham xiyonat qilishni xayolimga ham keltirmaganman. Er-xotin idish tovoq yuvganmiz, sassiq omborxonada, kalamushlar orasida uch kecha-kunduz chirigan karam yeb yotganmiz, lekin qaytish pulini halol ishlab topganmiz, o‘g‘irlik qilmaganmiz, g‘arlik qilmaganmiz. Kelib-kelib endi yomon yo‘lga yuramanmi?! Mana ko‘rasiz, opa, men ishlayman, Samadjonim ishlaydi, biz bu botqoqlikdan chiqib ketamiz. Hali bizning ustimizdan kulmoqchi bo‘lganlarning o‘zlari sharmanda bo‘lib qolishadi. Mana ko‘rasiz! Mana ko‘rasiz! Siz bo‘lsa meni olib borib anavi iflosning sassiq qo‘yniga tiqmoqchisiz. Bir sizmas, sezib yuribman, keyingi paytlarda boshqa qo‘shnilar ham meni axmoq bilibmi, menga yordam berishi mumkin bo‘lgan qandaydir odamni maqtab qo‘yishadi, o‘shaning oldiga chopib borishim kerakligini uqtirmoqchi bo‘lishadimi-yey. Axir...axir bu ...bir odamni bo‘ynidan sudrab boshqaning to‘shagiga olib borib tashlash qo‘shmachilik emasmi...Uyat emasmi...Sharmandalik emasmi...”[3:155]

Asar boshida qahramonimizning xatti-harakatlaridan uni ayblashga, Osiyo opa ta‘biri bilan aytganda yengiltak bozorchi ayollardan biri deb hukm chiqarishga shoshgan kitobxon, Nozimaning psixologiyasi, portreti namoyon bo‘lgan ichki kechinmalarini o‘qiganda, albatta, u haqidagi tasavvurlari, munosabati o‘zgaradi.

E‘tiborlisi shundaki, Abduqayum Yo‘ldoshning aksariyat obrazlari bir-biriga xarakter jihatidan o‘xshab ketadi. Erining bo‘shangligidan, jaraq-jaraq pul topib kelmayotganidan mudom kuyunuvchi ayollar, bir gapni tuzuklab ayta olmaydigan, “og‘ziga kalla sho‘rva turmaydigan” landavurlar, birovlarining hayotiga tumshug‘ini tiqib, suvni loyqalatadigan “korchalonlar”, jur‘atsizligi natijasida hayotda yutqazib qo‘yib, toabad azobini tortadiganlar, shoir ta‘biri bilan aytganda “taqdiri siyoh misoli qora” bo‘lib, barchaga ziyo ulashuvchi, kecha-yu kunduz millat kelajagi uchun qayg‘uradigan, lekin, shunga munosib e‘tirof ko‘rmagan, turmushi g‘ariblikda kechadigan o‘qituvchilar... bu ro‘yxatni uzoq davom ettirishimiz mumkin. Shuni ham alohida qayd etish lozimki, Abduqayum Yo‘ldoshning birorta qahramonini ideal darajasiga olib chiqib bo‘lmaydi. Hayot haqiqati misoli. Hammada qusur bo‘lganidek, ijodkor asarlaridagi obrazlar ham jonli va hayotiy. Birortasi ayb-u nuqsondan holi emas.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Umirov. Adabiyot nazariyasi. -T.: “Sharq”, 2002.
2. A.Qahhor. Asarlar.6 -tom,-T.:1971-y.
3. A.Yo‘ldosh. Timsohning ko‘z yoshlari. Qissalar. Toshkent-2003.

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

4. Yo‘ldoshev A. “Mashaqqatlar osha yulduzlar sari”. Hikoyalar. Toshkent- “Yangi asr avlodi”- 2021
5. T.Boboyev. “Adabiyotshunoslik asoslari”. T: “O‘zbekiston”. 2002-y.
6. M.Abdurahmonova, “Ruhiy dunyo tasviri”- “O‘zbekiston” nashriyoti, Toshkent — 1977
7. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
8. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA’SIRI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
9. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. *Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior*. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
10. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. *Journal of Advanced Zoology*. 2023. 2184-2192 p.
11. Kalandarova D. “Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany”. *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.